

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ISAQULOVA MARXABO NEMAT QIZI

**ZOL-GEL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ANORGANIK MATERIALLAR
ISHLAB CHIQISH VA ULARNI KIMYOVIY SENSORLARDA
ISHLATISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on chemical sciences**

Isaqulova Marxabo Nemat qizi

Zol-gel texnologiyasi asosida anorganik materiallar ishlab chiqish va ularni kimyoviy sensorlarda ishlatish 3

Исакулова Мархабо Немат кизи

Разработка неорганических материалов на основе зол-гель технологии и их использование в химических сенсорах 21

Isaqulova Markhabo Nemat qizi

Development of inorganic materials based on sol-gel technology and their use in chemical sensors 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ISAQULOVA MARXABO NEMAT QIZI

**ZOL-GEL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ANORGANIK MATERIALLAR
ISHLAB CHIQISH VA ULARNI KIMYOVIY SENSORLARDA
ISHLATISH**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PHD/K326 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifada (www.samdu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasimov Abdullo Muradovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultonov Marat Mirzayevich
kimyo fanlari doktori, professor

Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 ilmiy kengashning 2024-yil "21" "may" soat "11.00" dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti, Kimyo binosi 220-xona. Tel.: (+99866)239-11-40, faks: (+99866)239-11-51, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "13" "may" tarqatildi.
(2024-yil "13.05" dagi № 6 raqamli reyestr bayonnomasi.)



X.T.Trobov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

J.R.Uzokov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, PhD

E.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda nanomateriallarga asoslangan sensorlar yuqori sezuvchanligi, tezkor javob berishi va miniatyuralashtirish kabi noyob xususiyatlarga ega bo'lganligi tufayli ular fan, texnika va ishlab chiqarishning turli sohalarida moddalar analizida katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, zaharli gazlar va organik birikmalarni aniqlab monitoringni amalga oshirishda, kimyo sanoatida xomashyo va mahsulotlar sifatini nazorat qilishda, atrof-muhitdan metallarni aniqlashda, oziq-ovqat, biologik, radiatsiyaviy va yadroviy tahdidlarni baholashda, qondagi glyukoza, oqsillar, antitanalar va saraton belgilarini aniqlash va monitoringida keng qo'llanilmoqda. Ma'lumki, nanomateriallar kichik o'lchamlari va hajmga nisbatan katta sirt maydoni tufayli yuqori sirt faolligiga ega. Bu ularga asoslangan sensorlarga juda past konsentratsiyalarda maqsadli molekulalar mavjudligini aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda elektron, optik, magnit xossalarini namoyon qiladigan nanomateriallarni olish hamda ular asosida sensorlar yaratish va ularning analitik kimyoda qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, o'lchami, shakli va sirtini funksionallashtirish, istalgan sezgirlik xossalariga ega sensorlar olish va laboratoriya sharoitida turli moddalar analizida, jumladan gazlar, biomolekulalar va og'ir metall ionlarini aniqlash, laboratoriya sharoitida chidamli, barqaror va takrorlanuvchi natijalar beruvchi sensorlar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham termokimyoviy va elektrokimyoviy sensorlar yaratish va ularning qo'llanilishi bo'yicha talay ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, vodorod, kislorod, ammiak, vodorod sulfid, karbonat angidrid va boshqa shu kabi gazlarni aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan sensorlar amaliyotga joriy etilgan. Respublikamizni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "sanoatni yanada modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, uning yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini, birinchi navbatda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirishga yo'naltirilgan holda uni yangi sifat darajasiga ko'tarishga"¹ qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada texnologik chiqindi va zaharli gazlarni nazorat qilish uchun zamonaviy, mustahkam, ekspress, selektiv sensorlarni yaratish hamda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni², 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-sonli "O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish" to'g'risidagi qarorlari hamda mazkur

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Dunyoda yetakchi bo'lgan va rivojlanib borayotgan mamlakatlarda atrof-muhitdagi turli xil gazlarning havodagi konsentratsiyalarini aniqlash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Chiqindi va zaharli gazlarni monitoring qilishda ishlatiluvchi sensorlarni rivojlantirish sohalari bilan Rumyantseva M.N., Makeeva E.A., Prabir K., Gardner J.W. ishlari diqqatga sazovordir. Belarussiyada nanotexnolog olim Xatko V.V. tomonidan kimyoviy sensorlar sohasi, Rossiyada pyezokvarts biosensorlar yo'nalishida Shashkanova O.Y., biosensorlarni yaratish ustida Rudnitskoy A.M., Vlasov Y.G., Legina, elektrokimyoviy DNK-sensorlar yo'nalishida Evtyugina G.A., Budnikov G.K., Britaniyalik olimlar Kolett Mak Donaf, Benjamin M.T, Olujinmi M, Arshak K. tomonidan chiqindi gazlarni monitoring qilish sohasida kimyoviy sensorlarda yangi materiallar va texnologiyalardan foydalanish sohasida o'z tadqiqot ishlarini olib borgan.

Respublikamiz olimlari T.K.Xamraqulov, N.S.Zokirov, A.M.Gevorgyan, R.X.Djiyanboyeva, A.M.Nasimov, E.Abduraxmanovlar kimyoviy sensorlar yaratish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Adabiyot manbalari tahlillari shuni ko'rsatadiki, xona haroratida ammiak va oltingugurt (IV) oksidining mikrokonsentratsiyagacha aniqlovchi optik sensorlar (xususan, TEOS va indikator tarkibli) bo'yicha tadqiqotlar cheklangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, NH₃ va SO₂ uchun xona haroratida ishlaydigan vizual sensorlarni yaratish kam o'rganilgan sohaligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Shuning uchun BTK@TEOS, BKQ@TEOS tarkibli gaz sezgir materiallarni ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq №IOT-2015-7-23 "Zol-gel texnologiyasi asosida "smart" nanogibrid (organik-anorganik) materiallar ishlab chiqish va ularning kimyoviy sensorlarda ishlatilishi" (2015-2016) mavzusidagi innovatsion granti doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zol-gel texnologiyasi asosida anorganik materiallar ishlab chiqish, ularni kimyoviy sensorlarda ishlatish, NH₃ va SO₂ gazini selektiv aniqlovchi optik sensorlar yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zol-gel jarayoni natijasida tetraetoksisilan (TEOS) ning turli erituvchi muhitlarida gidrolitik polikondensatsiya sharoitlari va qonuniyatlarini o'rganish;

optik materiallar sintezi uchun turli katalizatorlar hamda kerakli erituvchilar ishtirokida optimal tarkibli qatlam hosil qilish va ushbu qatlamga indikatorlarni immobilizatsiya qilish;

olingan sensorning tuzilishi va fotokimyoviy xossalarini turli zamonaviy spektral usullar - kukun rentgen diffraksiyasi, diffuz aks etish spektroskopiyasi, Fur'e transformatsion infraqizil spektroskopiyasi, elektron yutilish spektroskopiyasi yordamida aniqlash;

zol-gel texnologiyasi asosida nanotuzilishli materiallar sintez qilish, ammiak va oltingugurt(IV) oksidning mikrokonsentratsiyalarigacha aniqlovchi optik sensor yaratish;

ammiak va oltingugurt(IV) oksidini aniqlovchi optik sensorlarning analitik va metrologik xossalarini tavsiflash hamda ishlab chiqilgan sensorlarni laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida sinovlardan o'tkazish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida TEOS asosida hosil qilingan zol-gel materiallar, sanoat korxonalarining chiqindi gazlari, atmosfera havosi va standart gaz aralashmalari olingan.

Tadqiqotning predmetini ammiak va sulfid angidrid gazlari, TEOS, silanlar, kerakli xossaga ega bo'lgan turli indikatorlar asosidagi gaz sezgir materiallar tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari sifatida ilmiy tadqiqot ishida elektron yutilish spektroskopiyasi, lyuminessensiya, kukun rentgen diffraksiyasi, IQ spektroskopiyasi, termik analiz, vizkozimetriya, diffuz aks etish spektroskopiyasi, yorug'lik va elektron mikroskopiyasi kabi zamonaviy fizik kimyoviy usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p komponentli gazlar aralashmalari tarkibidan NH_3 gazini mikrokonsentratsiyalarigacha aniqlovchi BKQ@TEOS tarkibli qatlam hosil qilindi. Shuningdek, SO_2 gazini mikrokonsentratsiyalarigacha aniqlash uchun esa BTK@TEOS tarkibli qatlam hosil qilingan va bu qatlamlar asosida optik sensorlar yaratilgan;

SO_2 va NH_3 gazini aniqlovchi optik sensorlarga kislotali (CO_2 , va boshqalar) va ishqoriy (aminlar) muhit beruvchi gazlar ta'siri aniqlangan;

turli xil indikatorlardan foydalanib SO_2 va NH_3 gazi konsentratsiyasini keng diapozonda aniqlovchi gaz sezgir materialning metrologik va ekspluatatsion parametrlariga turli omillarning ta'siri aniqlangan;

ammiak va oltingugurt(IV) oksidi uchun sensorlar kimyoviy sezgir qatlamining kompozitsiyalari optimallashtirildi va kimyoviy sensorlar uchun belgilangan xususiyatlarga ega "smart" membranalar olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

atmosfera havosi va gazlar aralashmasi tarkibidan ammiak va sulfid angidridni aniqlovchi optik sensorlar yaratilgan.

o'lchami 0,5x3 cm, sezgirligi 0,005%, dinamik o'lchash sohasi 0-100%, javob reaksiyasi 1,8 sekund ($\text{NH}_3 \rightarrow \text{N}_2$) bo'lgan ammiak gazini aniqlovchi optik sensorni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

o'lchami 0,5x3 cm, sezgirligi 0,001%, dinamik o'lchash sohasi 0-100%, javob reaksiyasi 2,5 sekund ($\text{SO}_2 \rightarrow \text{Ar}$) bo'lgan oltingugurt(IV) oksidini aniqlovchi optik sensorni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

optik sensor yordamida ammiak gazini aniqlashning metodikasi ishlab chiqilgan;

optik sensor yordamida oltingugurt(IV) oksidini aniqlashning metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarning ishonchliligi bir-birini to'ldiruvchi gaz xromatografiyasi va elektrokimyoviy analiz usullari singari zamonaviy usullarga asoslanib olinganligi bilan tasdiqlangan. Matematik statistik usullar yordamida qayta ishlangan tajriba natijalari asosida xulosalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kimyoviy sensorlarda foydalanish uchun zol-gel texnologiyasi asosida noorganik materiallarni ishlab chiqish va o'rganish bo'yicha bilimlar chegaralarini kengaytirishga va bu bilimlarni amaliy maqsadlarda qo'llashga yordam berish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, kimyoviy sensorlarni qo'llash sohasini takomillashtirish va kengaytirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa ilmiy tadqiqotlarda muvaffaqiyatga olib keladi, shuningdek, yangi texnologiyalarni kundalik hayotda amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zol-gel texnologiyasi asosida yaratilgan sulfit anhidrid va ammiak gazlarini aniqlovchi sensorlar ishlash jarayonining ilmiy texnologik asoslari ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sulfit anhidrid gazini aniqlovchi sensor "Elektrokimyozavod" qo'shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati qoshidagi "Elkimyo-agroximoya" MChJda amaliyotga joriy etilgan ("Elkimyo-agroximoya AJ ning 2022 yil 26 iyundagi 159-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan optik sensor zavod chiqindilaridagi SO₂ gazini aniqlash imkonini bergan;

sulfit anhidrid gazini aniqlovchi sensor "Elektrokimyozavod" qo'shma korxonasi aksiyadorlik jamiyatida qoshidagi "Elkimyo-agroximoya" MChJda SO₂ ni monitoringini o'tkazishda amaliyotga joriy etilgan ("Elkimyo-agroximoya AJning 2022-yil 26-iyundagi №159-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan SO₂ ni monitoringini amalga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiga kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 100 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’jekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Analitik kimyoda nanomateriallar olish uchun zol-gel usulining qo‘llanilish istiqbollari” (Adabiyotlar sharhi) deb nomlangan bobida nanomateriallar va ularni olishning asosiy usullari, noorganik materiallar olishning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, zol-gel texnologiyasi asosida materiallar olish va ulardan kimyoviy sensorlar yaratish uchun foydalanish holati, SO₂ va NH₃ ni nazorat qilishda ishlatiladigan kimyoviy sensorlarning hozirgi zamon holati va ularda foydalanilgan elektrodlar, elektrolitlar va materiallar, ularning kimyoviy va optik xossalari, qattiq holdagi materiallarni xossalari tekshirishda diffuz aks etish spektroskopiyasining ahamiyati haqida ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Zol-gel usulida nanomateriallar olish va ularning kimyoviy sensorlarda ishlatilishi” (Tajribaviy qism) deb nomlangan bobida zol-gel usulida kremniyli prekursor tarkibli materiallar olish va ularga dopantlar qo‘shish yo‘llarini ishlab chiqish, haroratni o‘zgartirib material olish, olingan materiallarning optik xossalari va tuzilishini o‘rganish, tayyorlangan optik sensorlarni kimyoviy sensorlar yaratishda foydalanish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kremniy prekursorli materiallar olish va ularga dopantlar qo‘shish yo‘llarini ishlab chiqish. Zol-gel qatlamiga bromkrezol qizilini (BKQ) va bromtimol ko‘ki (BTK) ni birlashtirish uchun dastlab indikatorlar etil spirtida (99%) eritib olindi va ularning 0,1; 0,05; 0,01; 0,005; 0,001 M li tarkibli eritmaları tayyorlandi hamda turli erituvchilar ishtirokida TEOS ga dopant sifatida birlashtirildi (1- va 2-jadvallar).

1-jadval

Dopant qo‘shilgan zol-gel eritmalar tarkibi

No	Alkoksid	Erituvchi	Indikator	C _{Ind} , mol/l	Izoh
1	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)
2	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
3	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
4	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
5	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)
6	TEOS	CH ₃ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)
7	TEOS	CH ₃ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
8	TEOS	CH ₃ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
9	TEOS	CH ₃ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
10	TEOS	CH ₃ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)
11	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)

№	Alkoksid	Erituvchi	Indikator	C _{Ind} , mol/l	Izoh
12	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
13	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
14	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
15	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)
16	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)
17	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
18	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
19	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
20	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)
21	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)
22	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
23	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
24	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
25	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)
26	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0100	- - (S+)
27	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0050	+ + (S+)
28	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0010	+ + (S-)
29	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0005	+ + (S-)
30	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BKQ	0,0001	+ + (S-)

Izoh: “+” gomogen, “-” agregatlan, (S +) sezgirligi yuqori, (S -) sezgirligi past

Jadvaldan, BKQ ning konsentratsiyasi 0,005 mol/l bo‘lgan namunalarida gomogenlik va gazga nisbatan sezgirligi eng yuqori bo‘lishini ko‘rish mumkin.

2-jadval

Dopant qo‘shilgan zol-gel eritmalar tarkibi

№	Alkoksid	Erituvchi	Indikator	C _{Ind} , mol/l	Izoh
1	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
2	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)
3	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
4	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
5	TEOS	C ₂ H ₅ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)
6	TEOS	CH ₃ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
7	TEOS	CH ₃ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)
8	TEOS	CH ₃ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
9	TEOS	CH ₃ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
10	TEOS	CH ₃ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)
11	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
12	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)
13	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
14	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
15	TEOS	C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)
16	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
17	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)

№	Alkoksid	Erituvchi	Indikator	C _{Ind} , mol/l	Izoh
18	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
19	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
20	TEOS	<i>i</i> -C ₃ H ₇ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)
21	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
22	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)
23	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
24	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
25	TEOS	<i>i</i> -C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)
26	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0100	- - (S+)
27	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0050	+ + (S+)
28	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0010	+ + (S-)
29	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0005	+ + (S-)
30	TEOS	1-C ₄ H ₉ OH	BTK	0,0001	+ + (S-)

Izoh: “+” gomogen, “-” agregatlan, (S +) sezgirligi yuqori, (S -) sezgirligi past

Jadvaldan, BTK ham konsentratsiyasi 0,005 mol/l bo‘lgan namunalarida gomogenlik va gazga nisbatan sezgirligi eng yuqori bo‘lishini ko‘rish mumkin.


Materiallarning optik xossalarini o‘rganish. Mikroskop oynasi sirtiga qoplangan TEOS orqali nur o‘tkazuvchanlikning o‘zgarishini aniqlash uchun namunalarning 400 nm dan 800 nm gacha bo‘lgan sohada o‘tkazuvchanlik spektrlari olindi. Olingan natijalar mikroskop oynalari o‘tkazuvchanligini saqlab qolganligini ko‘rsatdi. Zol-gel usulida olingan materiallarda BTK va BKQ ning fotokimyoviy xossalarini o‘rganish uchun IQ Fur‘ye spektrometri yordamida spektral tahlil qilindi. Buning uchun BTK va BKQ ning konsentratsiyasi 0,005 mol/l bo‘lgan namunalardan foydalanildi. Tadqiqotlar uchun o‘lchashlar soni 20 marta va ajratib ko‘rsata olish kuchi 4 cm⁻¹ bo‘lgan parametrlar tanlandi.

SO₂ gazini aniqlovchi BTK@TEOS tarkibli qatlamning metrologik va analitik xossalarini aniqlash

Zol-gel usuli orqali olingan qatlamlarga indikatorlar immobilizatsiya qilindi hamda bu qatlamlar asosida turli gazlarning konsentratsiyasini aniqlash uchun tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, BTK@TEOS qatlam asosida hosil qilingan sensorning sezgirligi 0,001%, o‘lchami 0,5x3 sm, dinamik o‘lchash sohasi 0-100%, javob reaksiyasi 2,5 sekund (SO₂→Ar); 40 sekund (Ar→SO₂), ishlash muddati esa olti oygacha ekanligi aniqlandi.

NH₃ gazini aniqlovchi BKQ@TEOS tarkibli qatlamning metrologik va analitik xossalarini aniqlash

NH₃ gazini aniqlashda ishqoriy muhitga nisbatan sezgir BQK@TEOS tarkibli qatlamdan iborat sensorning sezgirligi yuqori hisoblanadi. Standart gaz aralashmalarini tayyorlash uchun N₂ va NH₃ gazlar aralashmasidan foydalanilgan. O‘lchami 0,5x3 cm bo‘lgan ammiak gazini aniqlovchi optik sensorning asosiy ko‘rsatkichlari: sezgirligi 0,005%, dinamik o‘lchash sohasi 0-100%, javob reaksiyasi 1,8 sekund (NH₃→N₂); 40 sekund (N₂→NH₃), ishlash muddati esa olti oy ekanligi aniqlandi.




1-rasm. Toza BKQ va BKQ@TEOS tarkibli materialning (a) va toza BTK hamda BTK@TEOS tarkibli materialning (b) IQ (normallashtirilgan) spektri

Dopantlarning o‘z fotokimyoviy xossasini saqlab qolganligini aniqlash uchun ularning elektron yutilish spektrlari olindi va u TEOS ga biriktirilgandan so‘ng hosil qilingan namunalarning elektron yutilish spektrlari bilan taqqoslandi (1-rasm).

1-rasmdan BTK va BKQ ning zol-gel usulida silikat materialga birikkanda o‘z xossalarini saqlab qolganligini spektrdagi funksional guruhlarga tegishli (1500-4000 cm^{-1}) chastotalar o‘rni saqlanib qolganligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, hosil qilingan qatlamlarni kukun holatdagi sezuvchanligi diffuz aks etish spektroskopiyasi yordamida o‘rganildi. Bunda fon elektrolit sifatida bariy sulfat BaSO_4 kukunlaridan foydalanildi (2-rasm).

Olingan qatlamlarda zol-gel usulida turli indikatorlar immobilizatsiya qilinganligi uchun ulardan turli gazlarning konsentratsiyasini aniqlash uchun tadqiqotlar olib borildi, tayyorlangan qatlamlardan ammiak gazini aniqlashda vizual sensor sifatida foydalanish mumkin.



2-rasm. Tayyorlangan optik materiallarning tuzilishi: BaSO_4 fon (a); BKQ@SiO_2 (b)




3-rasm. Diffuz aks etish spektrlarini olish uchun ISR-2600 integratsion sfera

Rasmda chap va o‘ng o‘rinlarga standart oq BaSO_4 qoplamasi joylashtirilib, bazaviy korreksiya amalga oshirilganligi tasvirlangan. Shundan so‘ng, o‘ng


tomondagi oq qoplama ustiga BKQ@SiO₂ joylashtirilib, 3-rasmda ko'rsatilgan ISR-2600 integratsion sferada o'lchashlar olib borilgan.

Dissertatsiyaning "**Zol-gel usulida tayyorlangan noorganik materiallar xossalari (Natijalar va ularning tahlili)**" deb nomlangan bobida olingan gaz sezgir materiallarining fotokimyoviy xossalari, tayyorlangan nanoo'lchamli optik sensorning graduirovka xususiyatlari hamda hosil qilingan gaz sezgir materiallarning metrologik xossalarini o'rganish jarayonida olingan natijalar keltirilgan.

O'lchashlar xona haroratida va difraksiya burchagi (2θ) 5° dan 90° gacha qadamli rejimda skanerlandi. Olingan materialning difraktogrammasi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. BKQ@TEOS tarkibli qatlamning difraktogrammasi




5-rasm. BKQ@TEOS tarkibli materialning oddiy shisha (yuqoridagi qora rangli) va nanotuzilishli shisha (yuqoridagi qizil rangli) bilan solishtirish

BKQ@TEOS tarkibli qatlamning difraktogrammalari ular amorf fazalardan iboratligini ko'rsatdi. Difraktogrammalarning $2\theta = 22 \div 24^\circ$ va $2\theta = 44 \div 46^\circ$ sohalarda yuqori intensivli cho'qqilar olingan namunalarni nanomaterial ekanligini tasdiqlaydi (5-rasm).

Haroratning yakuniy material xossalariga ta'siri. Zol-gel usulida bromkrezol qizilining har xil nisbatda tayyorlangan na'munalarining yutilish spektrlari "Specord 50" (Germaniya) spektrometrida o'lchandi. Olingan natijalar, namunalar tarkibida bromkrezol qizilining konsentratsiyasi ortishi bilan spektrlarda intensivlik ortishini ko'rsatdi (6-rasm). Ushbu namunalar 60 daqiqa davomida 100°C, 200°C, 300°C, 500°C va 800°C haroratdan xona haroratigacha ishlov berildi. So'ngra na'munalarning qaytadan havoga nisbatan yutilish spektri o'lchandi. Spektrdan ko'rinadiki, bunda ham bromkrezol qizilining konsentratsiyasiga bog'liq ravishda intensivlik har xil bo'ladi.

Gazli muhitda ammiak konsentratsiyasini diffuz aks etish spektroskopiyasi yordamida aniqlash. Tayyorlangan optik materialning diffuz aks etish spektri ammiak gazisiz va ammiakning turli konsentratsiyali standart gaz aralashmalari ta'siridan keyingi holati o'rganildi (3-jadval).



6-rasm. Bromkrezol qizilining TEOS asosidagi qatlamga biriktirilgan holatda turli haroratlarda barqarorligi

3-jadval

Gazli muhitda ammiak konsentratsiyasini aniqlash uchun tayyorlangan standart gaz aralashmalari

No	Hajmiy ulush NH ₃ , (%)	Diffuz aks etish, (R)	Kubekla-Munk birliklarida [(1 - R _∞) ² /2R _∞]	Optik zichlik log1/R _∞ , (sh.b)
1	100% N ₂	75,4	4,013	0,1230
2	0,1	73,3	4,860	0,1350
3	0,3	71,7	5,580	0,1440
4	0,5	70,0	6,430	0,1569
5	0,7	68,4	7,300	0,1650


Ammiak konsentratsiyasi bilan Kubelka-Munk funksiyasi (K/S) bog‘liqligi quyidagi tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$F(R_{\infty}) = \frac{(1 - R_{\infty})^2}{2R_{\infty}} = \frac{K}{S}$$

bu yerda $F(R_{\infty})$ - Kubelka-Munk funksiyasi; R_{∞} - ideal (absolyut) aks etish; K – yutilish koeffitsienti; S – sochilish koeffitsienti.


7- va 8-raslarda ko‘rsatilgandek, tayyorlangan optik material ammiak konsentratsiyasining keng sohasida chiziqli bog‘lanishni namoyon qildi. Shuningdek, diffuz aks etish ideal holda optik zichlikka ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Buning uchun yuqoridagi jadvalga muvofiq tayyorlangan optik qatlamning ammiak gaziga javob reaksiyasi optik zichlikka nisbatan ham hisoblab ko‘rildi va natijada to‘g‘ri chiziqli bog‘lanish kuzatildi (9-rasm).

Olingan BKQ@TEOS sensorga ammiak va oltingugurt (IV) oksidi standart gaz aralashmalarining javob reaksiyasi o‘rganildi (4-jadval).




7-rasm. BKQ@SiO₂ optik materialning ammiakning turli konsentratsiyali gaz aralashmalariga javob reaksiyasi

(— 0% NH₃; — 0,1% NH₃; — 0,3% NH₃; — 0,5% NH₃; — 0,7% NH₃).



8-rasm. Kubelka-Munk parametrining K/S gaz fazasida ammiakning hajmiy ulushiga bog‘liqligi



9-rasm. BKQ@SiO₂ NH₃-BKP@TEOS sensorining graduirovka chizig‘i


Olingan BKQ@TEOS sensorga ammiak va oltingugurt(IV) oksidi standart gaz aralashmalarining javob reaksiyasi o‘rganildi (4-jadval).

4-jadval


Ammiak va oltingugurt(IV) oksidi standart gaz aralashmalarining BKQ@TEOS sensorga javob reaksiyasi

No	Hajmiy ulush NH ₃ , (%)	Hajmi ulush SO ₂ , (%)	Diffuz aks etish R	Kubekla-Munk birliklarida [(1 - R _∞) ² /2R _∞]	O‘tkazuvchanlik log1/R _∞ , (sh.b)
1	10	5	46,7	30,42	0,330
2	5	5	56,5	16,75	0,250
3	1	5	68,4	7,30	0,165
4	0,5	5	70,2	6,33	0,154
5	0,1	5	73,4	4,82	0,134
6	0	5	75,6	3,94	0,121


4-jadvaldan ko‘rish mumkinki, namuna tarkibida ammiak konsentratsiyasi 10% dan 0,1% kamayishi bilan Diffuz aks etishning son qiymati 46,7% dan 73,4% gacha ortishi kuzatildi. Shuningdek, ammiak miqdorining kamayishi Kubekla-Munk birliklarining 30,42% dan 4,82% gacha, o‘tkazuvchanlik esa 0,330 dan 0,134 (sh.b) gacha kamayishi aniqlandi. BKQ@TEOS sensorning NH₃ va SO₂ standart gaz aralashmalariga javob reaksiyasi hamda optik sensorga ta’siri graduirovka qilindi (10- va 11-rasmlar). 1 % li ammiak gazi aralashmasining turli haroratdagi sensor signaliga bog‘liqligi graduirovka chizig‘i esa 12- rasmda keltirilgan.



10-rasm. BKQ@TEOS sensorning NH₃ va standart gaz aralashmalariga javob reaksiyasi




11-rasm. Tayyorlangan optik sensorga NH₃ ta'sirining graduivka chizig'i




12-rasm. 1 % li ammiak gazi aralashmasining turli haroratdagi sensor signaliga bog'liqligi graduivka chizig'i

Sensor namunalari ammiakning suvli eritmasi bilan ta'sirlashganda darhol rangini sariqdan binafsha rangga o'zgartirishi kuzatildi. Bu shuni ko'rsatadiki, indikator molekulari zol-gel texnologiyasi bilan olingan sensor qatlamining g'ovakliklarida yaxshi joylashadi va ammiak bilan oson ta'sirlashadi. Shuningdek, BKQ optik qatlama kovalent bog'lanmasdan, Van der Vaals kuchlari orqali bog'lanishi va o'z spektrokimyoviy xossalarini yaxshi saqlab qolishi aniqlandi.

13-rasmda BKQ biriktirilgan optik sensorning (BKQ S1) ammiak eritmasi 0,01 M dan 0,2 M gacha konsentratsiyasida elektron yutilish spektrlari keltirilgan. BKQ asosli muhitda 590 nm da yutilish maksimumiga ega bo'lishini tasvirdan ko'rish mumkin. Eritmada ammiak konsentratsiyasi ortishi bilan bu maksimum intensivligi ham ortadi. Ammiakning past konsentratsiyali suvli eritmalar uchun optik zichlikning konsentratsiyaga bog'liqlik graduivka chizig'i 14-rasmda keltirilgan. Bundan, ammiak konsentratsiyasi 0,01 M dan 0,1 M gacha o'zgarishi optik zichlikning 0,33 sh.b dan 0,53 sh.b gacha chiziqli bog'lanish namoyon qilishi hamda $R^2=0,99612$ ga teng bo'lishi aniqlangan.




13-rasm. BKQ S1 optik sensorning 0,01 M dan 0,2 M gacha ammiak eritmasida elektron yutilish spektrlari (— 0,01M, — 0,02M, — 0,03M, — 0,04M, — 0,05M, — 0,06M, — 0,065M, — 0,07M, — 0,075M, — 0,08M, — 0,09M, — 0,1M, — 0,2M).




14-rasm. Ammiakning past konsentratsiyali suvli eritmalariga BKQ@TEOS sensorning graduivka chizig'i (ammiak konsentratsiyasi 0,01 M dan 0,1 M gacha)

Gaz sezgir materiallarining metrologik xossalari

BKQ asosida tayyorlangan sensorga haroratning ta'siri 20°C dan 50°C gacha o'rganilganda, ammiakning suvdagi eruvchanligini 550 g/kg suv dan 250 g/kg suv gacha, absorbsiyaning 0,420 sh.b dan 0,390 sh.b gacha kamayganligi kuzatildi (15-rasm). Bu rasmda sensorning javob reaksiyasi bilan ammiakning suvda eruvchanligi orasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Signalning sekin pasayishi 2M li eritma ayni haroratda to'yinmaganligi aniqlangan (16-rasm).




15-rasm. BKQ sensorning turli haroratlardagi 2M ammiak konsentratsiyasiga javob reaksiyasi




16-rasm. 20°C dan 50°C gacha haroratdagi 2M li ammiak eritmalariga sensorning javob reaksiyasi

17-rasmda BTK biriktirilgan optik sensorning sulfid anhidrid gazi konsentratsiyasi 10% dan 0,001% gacha konsentratsiyasida elektron yutilish spektrlari keltirilgan. BTK ning kislotali muhitda 430 nm da yutilish maksimumiga ega, lekin 550 nm dagi yutilish polosi SO₂ gazi konsentratsiyasi o'zgarishiga juda sezgir bo'ldi.




17-rasm. BTK optik sensorning 0,001 - 10% hajm oralig'ida sulfid anhidrid gaziga javob reaksiyasining elektron yutilish spektrlari

(— 10% SO₂, — 5% SO₂, — 1% SO₂, — 0,5% SO₂, — 0,1% SO₂, — 0,05% SO₂, — 0,01% SO₂, — 0,005% SO₂, — 0,001% SO₂).




18-rasm. SO₂ gazi konsentratsiyasi bilan BTK@TEOS sensorining bog'liqlik graduirovka chizig'i

Turli gazlarning BTK@TEOS sensori ishlashiga ta'sirini o'rganishda CO va Cl₂ sensorning analitik signaliga amalda ta'sir qilmasligi aniqlandi, faqat CO₂ qisman ta'sir qiladi. Buning sababini BTK va CO₂ ham quyidagicha reaksiyaga kirishishi bilan izohlash mumkin:



Biroq, CO₂ gazining suvda eruvchanligi SO₂ nikidan past bo'lganligi sababli, uning aniqlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.



Shuningdek, CO₂ gazi ishtirokida o'lchashlar olib borilganda avval reaksiyon ta'sirlashganda hosil bo'lgan tuz bilan sulfid angidrid orasida reaksiya sodir bo'lishi aniqlangan.

5-jadval

S1 sensor yordamida NH₃ miqdorini aniqlash natijalari (n =5, P =0,95)

Eritilgan NH ₃	O'lchangan NH ₃	S	Sr·10 ²
0,1	0,097	0,003	3,00
0,3	0,298	0,005	1,60
1	1,020	0,002	0,80
2	2,010	0,005	0,20
3	3,020	0,010	0,30
4	4,020	0,010	0,25
5	5,030	0,030	0,60
10	10,020	0,010	0,10

BKQ@TEOS sensori yordamida ammiak gazi konsentratsiyasini o'lchash metrologik asoslari gaz shpristi yordamida tayyorlangan va Nessler usuli yordamida tasdiqlangan standart gaz aralashmalari yordamida o'rganildi va quyidagi natijalar olindi (5 va 6-jadvallar).

6-jadval

S2 sensor yordamida NH₃ miqdorini aniqlash natijalari (n =5, P =0,95)

Eritilgan NH ₃	O'lchangan NH ₃	S	Sr·10 ²
0,001	9,7·10 ⁻⁴	2,60·10 ⁻⁵	2,700
0,003	3,1·10 ⁻³	2,10·10 ⁻⁵	0,600
0,005	4,9·10 ⁻³	1,80·10 ⁻⁵	0,300
0,008	8,0·10 ⁻³	2,20·10 ⁻⁵	0,280
0,010	1,1·10 ⁻²	1,36·10 ⁻³	0,124
0,030	3,1·10 ⁻²	1,36·10 ⁻³	0,044
0,050	5,1·10 ⁻³	1,77·10 ⁻³	0,135


Keyinchalik, ishlab chiqilgan sensorning ammiakga sezgirlikini baholadik hamda uni atrof-muhit va atmosfera havosini kuzatishda qo'llash chegaralarini aniqladik. Natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

S1 va S2 tarkibli sensorlarning gazli muhitda va suvda erigan ammiak konsentratsiyasini o‘lchash sohalari


	Sensor	Sezgirligi	Muhit
1	S1	$(6,50 \pm 0,20) \cdot 10^{-3}$	Eritma
2	S2	$(2,16 \pm 0,04) \cdot 10^{-5}$	Eritma
3	S1	$(3,30 \pm 0,13) \cdot 10^{-2}$	Gaz
4	S2	$(9,15 \pm 0,04) \cdot 10^{-4}$	Gaz

Izoh: S1 yuqori, S2 past konsentratsiyali ammiak uchun

SO₂ gazini aniqlovchi optik sensor ishlab chiqarish va uni sinovdan o‘tkazishda izobutil spirti erituvchi sifatida olinganda sensorning barqarorligini yana bir bor tasdiqladi. Bunga sabab TEOS prekursori yordamida sensor namunalari zol-gel usulidan foydalanib tayyorlanganda hosil bo‘lgan material g‘ovakliklarida yetarli miqdorda suv qolishi natijasida BTK indikatorining kislota oksidi bilan reaksiyaga kirishishi uchun optimal sharoit yaratadi.



19- rasm. Ishlab chiqilgan optik sensorlar analitik signalining vaqt bo‘yicha barqarorlik diagrammasi: ammiak uchun BKQ@TEOS



20- rasm. Ishlab chiqilgan optik sensorlar analitik signalining vaqt bo‘yicha barqarorlik diagrammasi: oltingugurt(IV) oksidi uchun BTK@TEOS

Ekspirimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 19,20-rasmlardagi diagrammalarda keltirilgan zol-gel texnologiyasidan foydalanib, TEOSga tegishli kislota-ishqor qo‘shgan holda kompozit materiallar asosida ishlab chiqarilgan ammiak va oltingugurt (IV) oksidini aniqlovchi sensorlar, olti oydan kam bo‘lmagan vaqt davomida o‘z xususiyatlarini saqlab qoldi.

XULOSALAR

1. Zol-gel aralashmasi yotqizilgan shishalarning xossalari o'rganish natijasida eng optimal tarkib bu TEOS : *i*-C₃H₇OH : H₂O va TEOS : *i*-C₄H₉OH : H₂O mol nisbatini 1 : 4 : 4, *R* nisbat 4 – 6 bo'lganda hosil qilingan qatlam juda tekis, tiniq va shaffof holatda bo'lib gellanish vaqti 24 soatdan boshlanib 48, 96 soatgacha olingan namunalarda yoriqlar yo'qligi aniqlandi.

2. Optik shaffof va yetarlicha yupqa material olish uchun HCl ning pH=1 bo'lgan eritmasi katalizator sifatida qo'llanildi. Hosil qilingan qatlamga BTK hamda BKQ indikatorlarining 0,005 M li eritmali (maqbul sharoit sifatida tanlandi) birlashtirildi, kuchli kislotali muhitda reaksiya to'liqroq sodir bo'lib, materialga dopant yaxshi immobilizatsiyalandi; BTK@TEOS va BKQ@TEOS tarkibli gaz sezgir materiallarni qurtish uchun eng optimal harorat sifatida 70°C tanlandi.

3. Zol-gel texnologiyasi asosida tayyorlangan BKQ@TEOS va BTK@TEOS tarkibli materiallarning tuzilishi va fotokimyoviy xossalari o'rganildi. Olingan BKQ@TEOS materiallarning difraktogrammasida 2θ burchak 44-46° hamda 84-86° dagi polosalar uning nanotuzilishli ekanligini tasdiqlaydi. Diffuz aks etish spektri yordamida NH₃ konsentratsiyasi bilan Kubelka-Munk funksiyasi (K/S) bog'liqligi aniqlandi. IQ spektri tahlil qilinganda, indikatorlar silikat qatlamga fizik birikkanligi, elektron yutilish spektrlari tahlili asosida indikatorlar o'zining fotokimyoviy xossalarni saqlab qolgan holda birikkanligi isbotlandi.

4. Zol-gel texnologiyasi asosida tayyorlangan BKQ@TEOS tarkibli qatlam asosida yaratilgan sensor NH₃ gazini, BTK@TEOS tarkibli qatlam asosida yaratilgan sensor SO₂ gazining mikrokonsentratsiyalarini aniqlovchi optik sensor sifatida tavsiya etildi.

5. Zol-gel texnologiyasi asosida yaratilgan sulfid angidrid gazini aniqlovchi va monitoringini amalga oshiruvchi sensor "Elektrokimyozavod" aksiyadorlik jamiyatida amaliyotga joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.К.02.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

ИСАКУЛОВА МАРХАБО НЕМАТ КИЗИ

**РАЗРАБОТКА НЕОРГАНИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ
ЗОЛ-ГЕЛЬ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В
ХИМИЧЕСКИХ СЕНСОРАХ**

02.00.02 – Аналитическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирован под номером B2020.4.PhD/K326 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науке и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.samdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Насимов Абдулла Мурадович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Султанов Марат Мирзаевич
доктор химических наук, профессор
Рахматов Худойр Бобонизович
кандидат химических наук, доцент

Ведущая организация: Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится « 21 » май 2024 г., в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета Ph.D.03/30.12.2019.K.02.05 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова по адресу: 140104, Самарканд, Университетский бульвар, 15, Институт Биохимии, Химический корпус, 220 кабинет. Тел.: (+99866)239-11-40, (факс: (+99866) 239-11-51; E-mail: devonxona@samdu.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова за № 31, с которой можно ознакомиться в ИРЦ. (Фундаментальная библиотека СамГУ). Тел.: (+99866) 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан « 13 » май 2024 г.
(реестр протокола рассылки № 6 от « 13 » май 2024 г.)



Х.Т.Троров

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

Ж.Р.Узоков

Ученый секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, PhD

Э.Абдурахманов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотации диссертации доктора филофии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире сенсоры на основе наноматериалов приобретают большое значение при анализе веществ в различных областях науки, техники и производства благодаря своим уникальным свойствам, таким как высокая чувствительность, быстродействие и миниатюризация. В частности, при обнаружении и мониторинге токсичных газов и органических соединений, при контроле качества сырья и продукции в химической промышленности, при обнаружении металлов в окружающей среде, при оценке пищевых, биологических, радиационных и ядерных угроз. Оно широко используется для обнаружения и мониторинга уровня глюкозы в крови, белков, антител и маркеров рака. Известно, что наноматериалы обладают высокой поверхностной активностью из-за небольшого размера и большой площади поверхности по отношению к объему. Сенсорам на их основе важно обнаруживать присутствие целевых молекул в очень низких концентрациях.

В мире ведутся исследования по получению наноматериалов, проявляющих электронные, оптические и магнитные свойства, созданию сенсоров на их основе и использованию их в аналитической химии. В связи с этим особое внимание уделяется функционализации размера, формы и поверхности, получению сенсоров с заданными свойствами чувствительности, а также при анализе различных веществ в лабораторных условиях, включая обнаружение газов, биомолекул и ионов тяжелых металлов.

